

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

60910300 – Pediatriya ishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil «21» avgust dagi 316- sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	8
2.1.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	11
2.3.	60910300-Pediatriya ishi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	12
2.4.	Kvalifikatsiya	13
	Bibliografik ma’lumotlar	14
	Kelishuv varag‘i	15

1. Umumiy tavsifi.

60910300 – Pediatriya ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 6 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi 60910300 – Pediatriya ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr tayyorlovchi barcha tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, o‘tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining oldini olish, yuqumli kasalliklarning oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari, milliy protokollardan hamda dalillarga asoslangan tibbiyotdan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish, raqamli texnologiyalardan, jumladan, elektron tibbiy qaydlar va teletibbiyotdan samarali foydalanish, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo‘yicha kompleks masalalarni yechishni o‘z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Sog‘liqni saqlashning birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (oilaviy poliklinikalar va ularning filiallari, oilaviy shifokor punktlari).

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *tibbiy-profilaktik;*
- *tashxislash va davolash;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy;*
- *ilmiy-tadqiqot*

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

60910300 – Pediatriya ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Tibbiy-profilaktik faoliyatda:

sog’lomlashtirish, sanitar-gigiyenik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va o’tkazish;

aholi va bemorlar orasida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish, ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirish;

tibbiy-profilaktika yo’nalishida qo’llanilayotgan ilg’or profilaktik tadbirlarni o’rganish va amaliyotga tatbiq etish;

tibbiy-profilaktika yo’nalishida profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish bo’yicha to’liq hajmdagi zaruriy ko’nikmalarga ega bo’lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirishni egallash va baholash qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

Tashxislash va davolash faoliyatida:

qabulda va uyda bolalarni qabul qilish, anamnez va klinik tekshiruvdan olingan ma’lumotlarni sharhlash, dastlabki hamda differentsial tashxis qo’yish va ob’ektiv tekshiruv natijalaridan foydalangan holda bemor kasalligini boshqarish rejasini ishlab chiqish;

oilaviy poliklinikada mavjud imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqib Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro’yxatiga muvofiq bolalarda o’tkir va surunkali kasalliklarni oldini olish, tashxislash va davolash;

hayotga xavf solgan holatlarda shifoxonagacha birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish;

bemor bolalarda kasallikning xavf omillarini baholash, sog’lig’ini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog’lom turmush tarzini jismoniy va ruhiy jihatdan saqlash bo’yicha maslahatlar berish, ratsional va sog’lom ovqatlanish, oilani rejalashtirish, homilador ayollarga OIV-infektsiyasi hususida, shuningdek homilador, fertil yoshdagi, tuqqan ayollarga chaqaloqni ko’krak suti bilan boqish, oilani rejalashtirish hamda reproduktiv salomatlik masalalari bo’yicha maslahatlar berish;

bemor bolalarni shifoxonaga yotqizilgungacha shifokorlik yordamini ko’rsatish, tor soha mutaxassisini chaqirish yoki bemor bolalarga tegishli davolash-profilaktika muassasasiga yo’llanma berish;

klirik protokollarga muvofiq skrining tekshiruvlari va taqvimga asosan emlashni tavsiya etish, profilaktik tadbirlarni nazorat qilish;

cheklov choralarini (tibbiy raddiya) joriy etish uchun tibbiy ko’rsatmalarni aniqlash;

yuqumli kasallik, oziq-ovqatdan o’tkir zaharlanish aniqlanganda favqulodda xabarnomani shakllantirish;

tor soha mutaxassislari va boshqa professional guruhlar (ijtimoiy xodim, psixolog va boshqalar), hamshiralarga surunkali yuqumli bo’lmagan kasalliklarga chalingan bemor bolalarga uzoq muddatli tibbiy yordam ko’rsatishda qatnashish;

surunkali kasalliklar bilan nazoratda turgan bemor bolalarni doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyida va (yoki) muassasada kuzatish va uchlamchi profilaktika tadbirlarini o’tkazish;

shoshilinch va o’tkir holatda murojaat qilgan bemor bolalarga va biriktirilgan aholiga shifoxonagacha bo’lgan shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish, tez tibbiy yordamga xabar berish va (yoki) tez tibbiy yordam mashinasida kuzatib borish;

aholiga (bemor bolalarga) tibbiy rehabilitatsiya muolajalarini tayinlash (fizioterapiya muolajalari, davolovchi jismoniy mashqlar va boshqalar);

aholiga (bemor bolalarga) klinik protokollarga muvofiq kunduzgi stasionarda davolanish uchun davo muolajalarini tayinlash, nazorat qilish hamda kunduzgi shifoxona tibbiy hujjatlarini yuritish;

surunkali, davolab bo’lmaydigan, progressiv kasalliklarga chalingan bemor bolalarga palliativ tibbiy yordam ko’rsatish;

mustaqil harakatlana olmaydigan, aqli zaif yoki jismoniy imkoniyati cheklangan (nogiron) aholiga (bemor bolaga) doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyida tibbiy yordam ko’rsatish, yuqumli kasalliklar o’choqlarida observatsiya tadbirlarini o’tkazish;

o’rnatilgan tartibda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ekspertizasini o’tkazish va mehnatga layoqatsizlik turg’un holatlarida nogironlikni belgilash uchun tibbiy ijtimoiy ekspertiza komissiyasiga o’z vaqtida yo’llash;

faoliyatidagi barcha jarayonlarni “Elektron sog’liqni saqlash” axborot tizimida o’z vaqtida va to’g’ri qayd etilishini ta’minlash;

sog’lomlashtirish tadbirlari bo’yicha dasturlar ishlab chiqish;

aholini (bemor bolani) laboratoriya va instrumental tekshiruvlarga yuborish;

tibbiy hujjatlar bilan ishlash va o’z faoliyati bo’yicha hisobotlarni shakllantirish hamda taqdim qilish;

davolashning tibbiy va tibbiy bo’lmagan usullardan foydalanish samaradorligi va xavfsizligini baholash;

kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
yangi bilim va usullarni ishlab chiqish, tarqatish va joriy etishga ko‘maklashish;
maxsus tibbiy axborot va uning manbalarini tanqidiy baholash
va qaror qabul qilishda ulardan foydalanish;

barcha tashxislash va davo muolajalarini o‘tkazishda bemor bolalarning
xavfsizligini kafolatlash, samaradorlik, maqsadga muvofiqlik
va tejamkorlik tamoyillarini qo‘llash;

tibbiyot brigadasi faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish;

tibbiyot brigadasi faoliyatini tashkil qilish, tahlil etish, aholi salomatlik holatini
baholash, birlashtirilgan hududning “Salomatlik profili”ni tuzish va uni ijobiy
o‘zgarishiga erishishda jamoat tashkilotlari va hamkorlarni jalb etish;

tibbiyot brigadasi a’zolari faoliyati samaradorligini yaxshilash, faoliyatida ijobiy
natijalarga erishgan tibbiyot xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli birlamchi
tibbiy-sanitariya yordami muassasasi rahbariga takliflar kiritish;

hamkor tashkilotlar bilan birgalikda bolalar va o‘smirlar orasida sog‘lom
turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha
ommaviy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish va qatnashish, “Salomatlik maktabi”
faoliyatini amalga oshirish;

birlashtirilgan aholi yashaydigan hududda sanitariya va epidemiyaga qarshi keng
qamrovli tadbirlarni tashkil etish, aniqlangan yuqumli kasalliklar, zaharlanish,
jarohatlanish va favqulodda holatlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabarnoma berish;

“Onalar maktabi” faoliyatini olib borish, bunda yosh onalarni bolalarni ko‘krak
suti bilan boqish va oziqlantirish, to‘g‘ri parvarish qilish, o‘sish va rivojlanishini
nazorat qilish, chiniqtirish va kasallanishini oldini olishga o‘rgatish;

bolalarni ratsional ovqatlantirish, ota-onalar
va bolalar o‘rtasida bog‘liqlikni rivojlantirish, oilada bola uchun xavfsiz muhit
yaratish, jarohatlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish, bolalarda motorika va nutqni
rivojlantirishda kechikish va boshqalar bo‘yicha bolaning ota-onasi va
parvarishlovchisiga tavsiyalar berish;

yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi maqsadida bolalar va o‘smirlar
orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining shaxsiy gigiyena qoidalariga
rioya qilish, kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy
faollikni ta‘minlash, kasalliklar profilaktikasi sohasida bilim va ko‘nikmalarini hosil
qilish;

aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishda bemor bolalar
huquqining poymol bo‘lmasligini ta‘minlash, shifokor sirini saqlanishiga erishish,
hamkasblariga samimiy munosabatda bo‘lish;

oilaviy poliklinika hududida bemorlarga hayotni saqlab qolish yoki jiddiy
asoratlarni oldini olish uchun darhol tibbiy aralashuvni talab qiladigan holatlarda
(bemor bolalar oilaviy poliklinika hududida bo‘lganda yoki bemor uchinchi shaxslar
tomonidan olib kelinganda) tez tibbiy yordam brigadasi kelguniga qadar shoshilinch
tibbiy yordam ko‘rsatish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

sog’liqni saqlashda birlamchi bo‘g‘ini ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
tibbiy brigadani boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlari natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, kasbiy faoliyati jarayonida sifatni boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

demografik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash;

aholi o‘rtasida yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni uchrashi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash;

rejali va tezkor emlash natijalari bo‘yicha ma’lumot tayyorlash va taqdim etish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish;

ilmiy-tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Kasbiy kompetensiyalar ro‘yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantiriladi:

Tibbiy bilimlar;

Amaliy ko‘nikmalar va klinik fikrlash;

Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;

Etika va empatiya;

Umumiy amaliyot pediatrianing shaxsiy rivojlanishi;

Uzluksiz kasbiy rivojlanish;

Jamoat salomatligini saqlash.

Kompetensiya toifalari	Kod	Kompetensiya
Tibbiy bilimlar (TB) Tibbiy bilimlarni egallash	TB.1	Bola organizmining tuzilishi va funksiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari)
	TB.2	Bola tarbiyasining barcha muhim jihatlari va farovonligini tushunish, universal progresiv patronaj modeliga (UPM) muvofiq
	TB.3	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini bilish
	TB.4	Organizm struktur-funksional o‘zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish
	TB.5	Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish
	TB.6	Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish

	TB.7	Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish
	TB.8	Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam ko‘rsatish qoidalarini bilish
	TB.9	Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish
	TB.10	Eng ko‘p tarqalgan kasalliklarning profilaktikasi bo‘yicha bilimlarni birlamchi SS birlamchi bo‘ginida namoyish etish
	TB.11	Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog‘lom hayot tarzi haqida ma’lumot berishni bilish
	TB.12	Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o‘zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar)
<p>Amaliy ko‘nikmalar va klinik fikrlash (AK)</p> <p>Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko‘nikmalarni namoyon qilish</p>	AK.1	Bemorlarning shikoyatlari va anamnezini yig‘ish
	AK.2	Bemorlarning obyektiv ko‘rigini o‘tkazish, aniqlangan o‘zgarishlarni tahlil qilish (hamma yosh toifalari)
	AK.3	Ayol va bolaga belgilangan muddatda homiylikni (patronaj) tashkil etish, onalarga va bolalarga kasalliklarning oldini olish bo‘yicha homiylik yordamini tashkil etish (UPM)
	AK.4	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini o‘tkazish
	AK.5	Diagnostik (laborator-instrumental) tekshiruv usullarini tavsiya qilish va natijalarini tahlil qilish
	AK.6	Rasmiy qabul qilingan kasalliklarni kodlash tizimlari talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirish
	AK.7	Bemorni olib borish va davolash rejasini tuzish
	AK.8	Kasalliklarga tashxis qo‘yish, davolash va rehabilitatsiya qilishda “dalillarga asoslangan tibbiyot”ning asosiy tamoyillarini qo‘llash
	AK.9	Bemorlarni statsionar davoga shifoxonaga yotqizishdan oldingi bosqichda birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun muolajalarni amalga oshirish
	AK.10	Oilaviy poliklinikada keng tarqalgan kasalliklarni oldini olish usullarini qo‘llash
	AK.11	Bemorga uning salomatligi va kasallik oqibati haqida ma’lumot berish
	AK.12	O‘zRSSV buyruqlari asosida tibbiy hujjatlarni yuritish
	AK.13	Elektron sog‘liqni saqlash tizimida ishlash va teletibbiyot xizmatlarini qo‘llash
	AK.14	Kasalliklarni skriningini va dispanserizatsiyasini o‘tkazish, shuningdek rehabilitatsiya usullarini tavsiya qilish
<p>Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM)</p>	ShM.1	Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo‘naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko‘nikmalaridan foydalanishni va namoyish etish.

Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a’zolari bilan samarali muloqot	ShM.2	Etika me’yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo’yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish
	ShM.3	Bemorlar va ularning oilalariga ma’lumot berish, maslahat berish va o’rgatish
	ShM.4	Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo’nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda ShAM ko’nikmalarini qo’llash
	ShM.5	Bemorlarni davolashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish
Etika va empatiya (EE) Bemorlar va aholi bilan o’zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo’naltirilgan aholiga xizmat ko’rsatish amaliyoti	EE.1	Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat’i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish
	EE.2	Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ularning qonuniy vakillariga nisbatan halollik ko’rsatish
	EE.3	Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish
	EE.4	Bemorning shaxsiy manfaatlaridan ustun bo’lgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas’uliyat ko’rsatish
Shaxsiy rivojlanish (ShR) Tibbiy amaliyot uchun muhim bo’lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni namoyon qilish	ShR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o’zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish
	ShR.2	Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish
	ShR.3	Odob-axloq me’yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o’z imiji ustida ishlash va nizoli holatlarni boshqara olish
Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish	UKR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida o’z bilimi, klinik ko’nikmalarini yangilab borish
	UKR.2	Shaxsiy ehtiyojga ko’ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalarni ishlab chiqish
	UKR.3	O’z bilimi va ko’nikmalarini uzluksiz oshirib borish
	UKR.4	Bolalarga tibbiy xizmat ko’rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo’llash
	UKR.5	Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklarni tashxislash, davolash va oldini olish protokollarini o’z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish
Jamoat salomatligi (JS) Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta’minlash uchun zarur bo’lgan tibbiy yordam ko’rsatish tizimi va sog’liqni	JS.1	Sog’liqqa ta’sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o’rtasida kasalliklar, asoratlari va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish

saqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi bilimlarni namoyish etish	JS.2	Sog‘liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish. Kasalliklar haqida ma’lumot berish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish
	JS.3.	Sog‘liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun professional jamoada ishlash
	JS.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish.
	JS.5	Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko‘rish

2.2. Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalarni kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi;

Pediatriya ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasidagi majburiy fanlar blokiga bevosita kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar;

Tanlov fanlari blokiga ta’lim yo‘nalishi doirasida mutaxassislikdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondoshuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar kiritiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

- o‘quv tanishuv amaliyoti;
- ishlab chiqarish amaliyoti;
- bitiruv oldi amaliyoti.

2.3. 60910300 - Pediatriya ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MF1	Majburiy fanlar	9390	313	
1.01	O‘T1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1204	Falsafa	120	4	2
1.03	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.04	O‘RTTXT11-208	O‘zbek (rus) tili. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	OAN11-312	Odam anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.06	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.07	TK1106	Tibbiy kimyo	180	6	1
1.08	LTTT1204	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	2
1.09	TBFTAT11-208	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari	240	8	1,2
1.10	Ps1304	Psixologiya	120	4	3
1.11	GSEM12-308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.12	NFZ13-408	Normal fiziologiya	240	8	3,4
1.13	BK13-408	Biokimyo	240	8	3,4
1.14	MVI13-408	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	240	8	3,4
1.15	KA1504	Klinik anatomiya (Operativ jarroxlilik va topografik anatomiya)	120	4	5
1.16	PAN15-606	Patologik anatomiya	180	6	5,6
1.17	PFZ15-607	Patologik fiziologiya	210	7	5,6
1.18	FR15-606	Farmakologiya	180	6	5,6
1.19	GXGTE1406	Gigiena, harbiy gigiena. Tibbiy ekologiya	180	6	4
1.20	JSMM1606	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment	180	6	6
1.21	TKK1204	Tibbiyot kasbiga kirish	120	4	2
1.22	BKP15-608	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	240	8	5,6
1.23	P17-1018	Pediatriya	540	18	7,8,9,10
1.24	N11004	Neonatologiya	120	4	10
1.25	ShP11104	Shoshilinch pediatriya	120	4	11
1.26	IKP15-606	Ichki kasalliklar propedevtikasi	180	6	5,6
1.27	IK17-911	Ichki kasalliklar	330	11	8,9,10
1.28	KAI11203	Klinik allergologiya, immunologiya	90	3	12
1.29	TR1806	Tibbiy radiologiya	180	6	8
1.30	DVBDV1704	Dermatovenerologiya va bolalar dermatovenerologiyasi	120	4	7
1.31	EBE1805	Endokrinologiya, bolalar endokrinologiyasi	150	5	8
1.32	F1704	Ftiziatriya	120	4	7

1.33	NBNTG1100 6	Nevrologiya. Bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika	180	6	9,10
1.34	PNBPTP110 06	Psixiatriya, narkologiya. Bolalar psixiatriyasi. Tibbiy psixologiya	180	6	9, 10
1.35	STVFXA170 4	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	120	4	7
1.36	YKBYK EP18-1010	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya	300	10	8,9,10
1.37	KF11204	Klinik farmakologiya	120	4	12
1.38	UX15-606	Umumiy xirurgiya	180	6	5,6
1.39	BX17-1008	Bolalar xirurgiyasi	240	8	7,10
1.40	XK1704	Xirurgik kasalliklar	120	4	7
1.41	AGBK1904	Akusherlik va ginekologiya. Bolalar ginekologiyasi	120	4	9
1.42	TOBTO NBN18-906	Travmatologiya va ortopediya, HDJ. Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi. Neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi	180	6	8,9
1.43	OBOBS19- 1106	Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi. Bolalar stomatologiyasi	180	6	7,11
1.44	OBO1904	Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi	120	4	8
1.45	ARBAR1904	Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	120	4	9
1.46	OBOG11106	Onkologiya, bolalar onkologiyasi. Gematologiya, HDT	180	6	11
1.47	TTYo11204	Tez tibbiy yordam	120	4	12
1.48	RST11104	Reabilitologiya. Sport tibbiyoti	120	4	11
1.49	OSHAG1120 4	Oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya	120	4	12
1.50	OSHX11104	Oilaviy shifokorlikda xirurgiya	120	4	11
1.51	OSHT111- 1207	Oilaviy shifokorlikda terapiya. Kasb kasalliklari	210	7	11,12
1.52	OSHP111- 1208	Oilaviy shifokorlikda pediatriya	240	8	11,12
2.00	TF2	Tanlov fanlar	600	20	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	600	20	3-4-5-6-12
JAMI			9990	333	
	MM1-627	Malakaviy amaliyot	810	27	1,2,3, 4,5,6, 8,9, 10,11
	BAKYDA60 4	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi			
JAMI			810	27	
HAMMASI			10800	360	

2.4. Kvalifikatsiya: Umumiy pediatr shifokori

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavrning asosiy o‘quv rejasi va fan dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv tsikli, tibbiy bilim, tibbiy yo‘nalishlar, sog‘liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko‘nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, gistologiya, rentgenologiya, profilaktika, terapiya.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
“Sog’liqni saqlash” ta’lim sohasi bo’yicha
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,

Rektor  Sh.A.Boymuradov

2025 yil “ _____ ” _____

M.O’:



KYELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil “ _____ ” _____

M.O’:



O‘zbekiston Respublikasi
Sog’liqni saqlash vazirligi

Vazir
o‘rinbosari  E.Basitxonova

2025-yil “ _____ ” _____

M.O’:



O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni
saqlash vazirligi
Fan-ta’lim va innovatsiyalar
boshqarmasi

Boshliq  O‘.Ismailov

2025-yil “ _____ ” _____

M.O’:



Toshkent shahar sog’liqni saqlash
bosh boshqarmasi

Boshliq  B.Isabekov/

2025-yil “ _____ ” _____

M.O’:

